

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Mirzaaxmedova, B.Sh.Shermuhammadov

Xorij tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarda analistik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasining yoritilishi 9

A.A.Tolametov

Umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida tadqiqot 15

I.R.Jumaniyazov

Talabada musiqa ta'limi jarayonida kreativ qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish 20

Sh.I.Allamuratov

Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini pedagogik tahlil qilish 24

N.M.O'rinova, M.I.Muxammadjonova

Xorijiy ta'limga tyutorlik dasturlarining mohiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari 30

N.M.Merganova

Chet tili darslarida dialogik nutq turi va polilogdan foydalanish 36

A.A.Tolametov, M.M.Baxromov

Kompyuterning inson hayoti va salomatligi uchun ta'siri 40

Y.U.Egamberdiyeva

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisining ochiq qo'shma faoliyatini metodik rivojlantirish texnologiyalari 44

A.Abdulayev, J.Abdullahayev

Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni bolalar va o'smirlar organizmning funksiyasiga ta'siri 52

Q.Y.Nazirov

Yosh kurashchilarni dastlabki texnik va taktik tayyorlashning uslubiy asoslari 57

T.T.Yusupov

Kurashchhlarning texnik mahoratini oshirish yo'llarini o'rgatish mexanizmlari 61

Б.Б.Хайтбаева, Ф.А.Алижонова

Роль ритмической гимнастики в развитии координации движений у детей с нарушениями развития 64

O.N.Madaminov

Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan bog'liqligi 71

S.Muzafarova

Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurini rivojlanishda sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlarining san'at va madaniyat sohasiga doir qarashlarining estetik xususiyatlari 74

N.Sh.Urinova

Boshlang'ich ta'limga ingliz tili fanini o'qitish jarayonida steam texnologiyasidan foydalanishning roli 78

D.D.Boymirzayeva

Bo'lajak ta'limga menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirishning nazariy jihatlari 83

I.Ikromov

Gimnastika mashqlari komplekslarini tuzish va o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni turli maktabgacha yoshidagilar uchun tuzish metodikasi 87

E.Rahimov

O'zbek xalq qo'shiqlarining yoshlari ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli va vazifalari 94

Sh.B.Bekchonova

Kiberpedagogikaning ilk rivojlanish davrlari va hozirgi kunda ta'limga samaradorligini oshirishga ta'siri 98

Z.Y.Xamraqulov

Jinoyat huquqi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari 101

E.B.Nabiyev

Tarix fanini o'qitishda mustaqil ta'limga topshiriqlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati 107

O.A.Василиченко

Профессиональное самосознание педагога - музыканта – хормейстера 111



УО'К: 37.014:371.3:373

**XORIJY TA'LIMDA TYUTORLIK DASTURLARINING MOHIYATI VA ULARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**СОДЕРЖАНИЕ ТҮЮТОРСКИХ ПРОГРАММ В ЗАРУБЕЖНОМ ОБРАЗОВАНИИ И
ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

**CONTENT OF TUTORING PROGRAMS IN ABROAD EDUCATION AND POSSIBILITIES
OF USING THEM**

O'rinovalar Nilufar Muhammadovna¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi

Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi²

²Farg'ona davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqola hozirgi kunda yurtimizda joriy qilingan yangi tizimlardan biri tyutorlik faoliyati, uning oliv ta'lrim sifatiga ko'rsatayotgan ta'siri, afzalliklari va talabalarni qay darajada bilimli, muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlashga hissa qo'shayotgani, ushbu sohadagi xorijiy dasturlar tahlili haqidagi fikr-mulohazalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar xorij tajribasi, xususan, Portugaliya universitetlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar misolida yoritilgan. Bu izlanishlar natijasida tyutorning talaba uchun nafaqat ustoz balki yana ko'plab sharoitlarda birga bo'lish va ishlashga tayyor, motivator, tarbiyachi, kuzatuvchi, yo'naltiruvchi, himoyachi va rag'batlantiruvchi shaxs ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Joriy etilgan dasturlar mohiyati batafsil yoritilib, tadqiqotda talabalardan olingan so'rovnomalar asosida tyutorlar ega bo'lishi kerak bo'lgan sifat aniqlangan va bu orgali dasturlarni tyutor ish faoliyatida qo'llash samaradorligi ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье собраны отзывы об одной из новых систем, реформируемых в нашей стране, о репетиторской деятельности и ее влиянии на качество высшего образования, ее преимуществах и степени, в которой она способствует образованности и успешности студентов. Данная информация освещена на основе анализа зарубежного опыта, в частности исследований, проведенных в португальских университетах. В результате этих исследований мы можем стать свидетелями того, что тьютор – это не только учитель для ученика, но и человек, готовый быть вместе и работать во многих условиях, мотиватор, педагог, наблюдатель, проводник, защитник и вдохновитель. Подробно разъясняются сущность запущенных программ, на основе анкетирования студентов-участников определяются качества, которыми должны обладать преподаватели, принявшие участие в исследовании, и за счет этого определяется эффективность использования программ в работе тьютора.

Abstract

This article covers information and explanations on one of the new systems reformed in our country, the tutoring activity and its impact on the quality of higher education, its advantages, and the extent to which it contributes to students being educated and successful. These will be covered based on the analysis of foreign experience, in particular, researches conducted in Portuguese universities. As a result of these researches, we can witness that a tutor is not only a teacher for a student, but also a person who is ready to be together and work in many other conditions, a motivator, an educator, an observer, a guide, a protector and an encourager. The tariffs of the introduced programs are explained in detail, and the qualities that the tutors who participated in the study should have more are determined based on a questionnaire from the participating students, and through this, it is possible to increase the effectiveness of using the programs in the tutor's work.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, oliv ta'lim, tyutorlik dasturi, tadqiqot, tajriba, loyiha, malaka, nazorat qilish, baholash.

Ключевые слова: качество образования, высшее образование, тьюторская программа, исследование, эксперимент, проект, квалификация, руководство, оценка.

Key words: quality of education, higher education, tutoring program, research, experiments, project, qualification, supervision, evaluation.

KIRISH

Oliy ta'lrim sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi kunning muhim vazifalardan biri bo'lib borar ekan, bu yo'lda ko'plab malakali kadrlar va kuchli bilimga ega talaba

PEDAGOGIKA

yoshlarga katta ehtyoj seziladi. Bunday talab darajasidagi yoshlarni yetkazib berishda nafaqat pedagoglar balki yangi lavozim egalari – tyutorlarning ham o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston oliy ta'lif tizimiga "tyutorlik" faoliyati yo'lga qo'yilgandan buyon, mazkur yo'nalishda ko'plab izlanishlar olib borildi va ilg'or tajribalar amaliyatga joriy qilindi. Bu tajribalar asosida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, jumladan: oliy o'quv muassasasi va talabalar o'tasida hamkorlikdagi ishlarni amalga oshirish keskin sur'atlarda yengillashdi, har bir talaba bilan yaqindan aloqa o'rnatildi, uning yangi va yashirin qobiliyatları aniqlanib, to'g'ri yo'nalishlar berildi. Talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va bilim olish ko'nikmalarini tyutorlar yordamida o'rganish orqali ta'lif jarayonini sifatli tashkillashga erishilmoqda va talabalarni ko'plab yutuqlarga erishishga rag'batlantirilmoqda. Mazkur yutuqlar sonini yanada kengaytirish uchun tyutorlik sohasida xorijiy universitetlar tajribasini o'rganish foydadan holi bo'lmaydi. Quyidagi Portugaliya universitetlarining mavjud sohada olib borgan tadqiqotlari tahlili yurtimiz oliy ta'lif tizimida tyutorlik faoliyatini samarali tashkillash uchun konseptual asos sifatida xizmat qiladi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tyutor talaba uchun nafaqat ustoz balki yana ko'plab sharoitlarda birga bo'lish va ishlashga tayyor shaxs, motivator, tarbiyachi, kuzatuvchi, yo'naltiruvchi, himoyachi va rag'batlantiruvchi hamdir. Universitetda tyutor guruh(lar)idagi har bir talaba uchun javobgar hisoblanadi. Mashhur olimlardan biri Lazaro tyutorni oddiy murabbiy sifatida emas, balki talabani insoniy va ilmiy jihatdan rivojlanishining homysi, ta'lif jarayonida bilimlarni o'zlashtirishi nazoratchisi, o'z talabasining kuchli va zaif jihatlarini biladigan va uni ustida ishlaydigan shaxs sifatida ta'riflaydi [5,160-181]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib tyutorlik faoliyatining bir qator maqsadlarini aniqlab olishimiz mumkin. Ya'ni, tyutor talabalarni yangi o'quv yurti muhiti bilan oson integratsiyaga kirishishiga yordam berish uchun ularni universitet haqidagi bilimlar bilan to'liq ta'minlashi, talabalarni akademik va kariyera masalalari bo'yicha xabardor qilishi, universitet hayotining turli jabhalarida ishtirok etishga rag'batlantirishi, talabalarni akademik va shaxsiy jihatdan rivojlanirishi hamda har bir talabaning alohida tyutorga bo'lgan ehtyoj darajasini to'g'ri va aniq baholay olishi kerak. Ushbu maqsad va vazifalar tyutorlikning turli modellarini yaratishga asos bo'ladi.

Oliy ta'lif muassasalarida amalga oshirilayotgan turli tyutorlik dasturlari va amaliyotlari, jumladan, Lissabon Superior Tekniko Institutidagi tyutorlik dasturi, Alikante universitetidagi tyutorlik o'quv-harakati, Kastelo Branko Politexnika Institutidagi AIA dasturi va Lissabon universitetining pedagogika va psixologiya fanlar fakulteti yordamida tashkillangan PANA dasturlarini tahlil qilish tyutorlikka oid loyihalarni amalga oshirishning xilma-xil usullarini tadqiq etish imkonini beradi. Bular bilan quyidagi jadvalda tanishishimiz mumkin:

1-jadval

Tyutorlik tizimining ba'zi muhim jihatlari

N	Kategoriylar	Tafsifi
1	Tyutorlik modellari	Ma'muriy, o'quv, akademik, xususiy (shaxsiy) va boshqalar.
2	Tyutorlik maqsadlari	-talabalarni yangi o'quv yurti muhiti bilan oson integratsiyaga kirishishiga yordam berish uchun ularni universitet haqidagi bilimlar bilan to'liq ta'minlash; -talabalarni akademik va/yoki kariyera masalalari bo'yicha xabardor qilish; -universitet hayotining turli jabhalarida ishtirok etishga rag'batlantirish; -talabalarni akademik va shaxsiy jihatdan rivojlanirishi hamda har bir talabaning alohida tyutorga bo'lgan ehtyoj darajasini to'g'ri va aniq baholay olish.
3	Tarkibi	Ta'lif strategiyalari, ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot qobiliyatları va boshqalar
4	Ishlash maqsad qilingan guruhlar	Oliy ta'lif talabalari, sinf o'quvchilari, talabalar bilan individual ravishda ishlash, ERASMUS dasturi doirasidagi talabalar va boshqalar.
5	Ishlash shakllari	Jonli, masofaviy, majburiy, ixtiyoriy
6	Ish jadvali	Akademik rejaga muvofiq, rejadan tashqari individual reja asosida.

7	Ishlash muhiti	Rasmiy uchrashuvlar - darslar, norasmiy uchrashuvlar va boshqalar.
8	Ishlash hususiyatlari	Kichikroq guruuhlar, qo'shimcha tyutorlik soatlari va boshqalar.
9	Tyutor faoliyatini olib borish vakolati berilgan shaxslar	O'quv bo'limixodimi, kurs murabbiyi, bitiruvchi kurs talabasi va boshqalar.
10	Baholash	Ijobiy natijalar (professor-o'qituvchilar va talabalarni bir-biriga yaqinlashtirish, talabalar integratsiyasini yaxshilash); cheklovlar (charchoq va vaqt jadvalidagi ortiqcha yuk tufayli ishlashning pasayishi) va boshqalar.

Universitet talabalariga yo'l-yo'riq ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati yuqoriligi sababli ko'plab oliy o'quv muassasalari bugungi kunda ushbu ehtiyojni qondirish usullarini taqdim etishga mo'ljalangan dasturlar ishlab chiqishmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Quyida "Pana - yangi yordam" (Programme for students entering the university (Universitetga kirmoqchi bo'lgan talabalar dasturi) va Fpce-ul da erasmus talabalar uchun "Paee" (Psychopedagogic student support service - Talabani psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmati) tyutorlik dasturi bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Mazkur keltirilgan dasturlar o'qishga endi qabul qilingan, 1-kurs talabalarni qamrab oladi, Fpce-uldagi talabalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmati (GAPE - Psychopedagogic student support service "Talabani psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmati") talabaga yordam dasturini amalga oshiradi. Ikkala dastur ham yosh talabalarga do'stona maslahat berish qoidalariغا muvofiq tuzilgan. Ular tengdoshlar o'ttasida o'zaro yordam berishga tayyor bo'lish va universitet bilan yaqin aloqalar o'rnatishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi, yangi talabalarni samarali integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Ularning shiori - "oddiy yordam o'rniqa, his-tuyg'ular va fikrlarni hisobga olish, talabani boricha qabul qilish bilan yordam berish kerak". [7,53-83] Umuman olganda, oliy ta'lim talabalariga yo'naltirilgan tyutorlik dasturining asosiy maqsadlari birinchi bosqich talabalarini yangi o'quv muhitiga integratsiya qilish va ularning kasbiy va shaxsiy rivojlantirish maqsadida individual va shaxslararo munosabatlariga ko'maklashishdan iboratdir. Jumladan: talabalarga o'z bilimlarini anglashiga yordam berish, universitet, uning qanday ishlashi, uning geografik joylashuvi, talaba ijtimoiy izolyatsiyani oldini olish uchun shaxsiy "xavfsizlik tarmogi" ni yaratish, talabalarining o'quv maqsadlarini aniqlash va ularga ushbu maqsadlarga erishishda yordam berish hamda ular o'qiyotgan kurs uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Bu dastur besh bosqichdan iborat bo'lib, u quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **Tyutorlarni aniqlash va ishga tayinlash.** Bu odatda may-iyun oylarida amalga oshiriladi. Bunda tyutorlik lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar OTMni tamomlagan va xorijiy yoki respublika hududidagi o'qitish malakalariga ega bitiruvchi yoki o'quv yurtini tamomlagan talabalar bo'lishi kerak. Mazkur bosqich ular bilan bog'lanish va tanlab olingan 40 nafar atrofidagi talabalar bilan ishslash uchun roziliklarini so'rashni taqozo etadi.

2. **Tanlab olingan tyutorlar o'ttasida dasturni tarqatish.** Ushbu bosqich odatda iyun-iyul oylarida tashkil etilib, tyutorlarga ish faoliyatini olib borishi mumkin bo'lgan oliy ta'lim muassasalari manzili va elektron pochtalari beriladi, loyiha bilan tanishtiriladi va dasturga qabul qilingan tyutorlar bilan uchrashuv sanasi va kunlari ma'lum qilinadi.

3. **Tyutorlar bilan o'quv-tayyorlov mashg'ulotlarini o'tkazish.** Bu bosqich sentyabr oyida amalga tatbiq etiladi va treninglar olib boriladi. Trening modullari odatda quyidagi mavzularni qamrab oladi: tyutorning roli va tyutor munosabatlariga xos bo'lgan qadriyatlar; "odatiy" vaziyatlar bilan shug'ullanish; muammolarni hal qilish; empatiya, muloqot, millatlararo hamjihatlik o'rnatish, o'rganish va tashkillash strategiyalari. Trening usullari asosan ikkita toifaga bo'linadi: kichik guruhlarda muhokama qilish va katta guruhlarda xulosalar va rolli mashg'ulotlar bajarishdan iborat.

4. **Tyutor-talaba munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish.** Talabalar ta'lim muassasasiga kelganidan keyin bir necha kun ichida ular bilan aloqa o'rnatiladi; kuzatuv aloqasi darslarning birinchi haftasida yoki talabalar kelganidan keyingi haftada (ya'ni talabalarini har kuni universitetda tushdan so'ng bo'sh vaqtida) amalga oshiriladi; darslarning 2-5-haftalari oralig'ida

PEDAGOGIKA

kamida ikkita rejalashtirilgan uchrashuvlar tashkil etiladi. Uchrashuv turli mavzular bo'yicha, masalan, dars jadvallari va o'quv rejalarini tashkil etish bo'lishi mumkin. Imtihonlarning birinchi bosqichida rasmiy yig'ilish tashkil etish kerak. Barcha rasmiy uchrashuvlar guruh sharoitida o'tkaziladi (har bir murabbiy 8 tadan 12 tagacha talabalar guruhiga rahbarlik qiladi).

5. Dasturni nazorat qilish va baholash. Dastur turli bosqichlarda baholanadi: boshida (mashg'ulotlardan oldin va talabalar bo'lsa, ular kelgan paytda); imtihonlarning birinchi bosqichi yakunida; va o'quv yilining oxirida. Baholash jarayoni ishtirokchilarning dasturdan qoniqish darajasini, yangi akademik muhit va mavzularga moslashish holatlarini tashhis qilish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur tugaganidan so'ng natijalar va xulosalar ommaga taqdim etiladi.

Navbatdagi tahlil qiladigan va o'rganadigan xorijiy dasturimiz bu "PLE – Project-Led Education - Tyutor bilan loyihami va 'lim dasturi" dir.

Bolonyadagi ta'limga faolroq yondashish asosiy vazifa qilib qo'yildi va buni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun "Universidade do Minho" oliy ta'lim muassasasi o'zining "PLE" dasturi taklif qildi. Dastavval, universitet muhandislik va sanoat menejmenti kursi (MIEGI, hozirda "Mestrado Integrado") ni ushbu kursni o'qiyotgan birinchi kurs talabalari bilan Project-Led Education (PLE) asosida o'qtishni boshlagan edi. Ta'limga bunday yondashuv guruhda ishlash, o'zaro muammolarni bartaraf etish, natijalar taqqidoti va turli hayotiy muammolar uchun yechimni birlunga loyihami ifodalash va kelajakdagagi ma'lum sohada mutaxassis bo'lism uchun tayyorgarlik olib borishga yordam beradi. Umuman olganda, tadqiqot ham tyutorlar ham talabalar uchun samarali bo'ladi, chunki bunda talaba o'quv davrining ilk yilidayoq o'z qobiliyat va o'rganish ko'nikmalarini ko'rsatib bera oladi va tyutor talabani qay sohada muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini oldindan baholay oladi.

PLEda tyutorning asosiy roli odatda loyihami kiritilgan o'quv modullari bo'yicha o'quv yili boshidan talabalar guruhini tashkillashni taqozo etadi. PLE loyihasida har yili ishtirok etuvchi talabalar soni 37 - 44 tani tashkil qiladi. Guruhlar odatda 6-8 kishidan iborat bo'lishi kerak. Guruhlarni shakllantirishda ma'lum bir xilma-xillikni hisobga olib, ya'ni talabalarni jinsi, rivojlanish uchun olgan ko'nikmalari va yo'nalishlarga qiziqishi kabilarni e'tiborga olib taqsimlash muhim hisoblanadi. Odatda, har bir PLE loyihasi umumiy 6 ta guruh va ular uchun 6 ta tyutorni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari loyihami rivojlanishi uchun tyutorning asosiy vazifalari: guruh ishini yanada dinamik darajaga olib chiqish va nazorat qilishdan iborat.

Umuman olganda, barcha guruhlar har hafta loyiha va guruh faoliyatini rivojlanishga bog'liq masalalarni ta'minlash va muhokama qilish maqsadida o'z tyutori bilan uchrashadilar. Mazkur uchrashuvlar har bir guruh uchun ajratilgan maxsus yig'ilish xonalarida, oldindan kelishilgan vaqt va sanada tashkil etiladi. Sana va vaqtini tyutor barcha guruh a'zolari bilan maslahatlashgan holda belgilaydi. Mas'uliyat nuqtai nazaridan, tyutor nafaqat o'z guruhiga yordam beradi, balki loyihami ko'rsatkichlarini oshirish, belgilangan ish bosqichlari amaliyotini kuzatib borish va loyihami o'zgartirish hamda rivojlanishlarni yozib olishga javobgar hisoblanadi.

Niderlandiyaning Tiente universitetida Peter Powell tomonidan huddi shunday loyihalardan biri tashkil etilgan bo'lib, mazkur PLE loyihasida ishtirok etgan bir nechta tyutorlardan interviyu olindi. [1,149-164] Bundan o'rganishimiz mumkinki, tyutorlar nazariy va amaliy bilimlariga qarab tanlab olinadi va shu bo'yicha kerakli guruhlarga tayinlanadi. Muvaffaqiyatlari faoliyat olib borish uchun tyutorlardan faol muloqot qila olish, liderlik, vaqt va loyiha menejmenti va motivatsiya berish ko'nikmalariga ega bo'lism juda ham muhim ekanligi aytib o'tiladi. Loyihaning bevosita kontekstida tyutorlar o'z ishidan ma'mnun bo'lism va ba'zi hollarda shaxsiy qoniqish hissini tuyganliklari bildirilgan. Tyutorlarning loyiha davomidagi ish tajribasi bo'yicha umumiy xulosasi hozircha ijobjiy. Talabalar bilan yaqin munosabatlar o'rnatilgani va ularning qiziqishlari, muammolarini yaxshiroq anglab, ruhlantirish berilgani universitet uchun ham undagi talabalar bilan bog'liq ko'pgina muammoli masalalarni nazoratga olish va hal etishga imkon yaratadi.

Interviyu davomida tyutorlar o'zlariga yuklangan bir qator vazifalarni ham aytib o'tishadi. Ular quyidagilardan iborat:

- Loyihani tayyorlash jarayonida hamda uni amalga oshirilgan har bir bosqichidan so'ng guruhni o'z fikr-mulohazalari bilan ta'minlash;
- Guruhni loyihami doir qarorlar qabul qilishda yordam berish;
- Guruh motivatsiyasini oshirish, guruh a'zolari o'rtasida dialog, o'zaro fikr almashishni rivojlanish;

- Talabalarning individual ta'lif taraqqiyotiga qiziqish ko'rsatish, loyihaning qaysi jabhasida faol ishtirok ko'rsatayotgani va yaxshi bilim olayotganini aniqlash.

Mazkur loyihaga jalb etilgan talabalarning fikri ham o'rganildi. Unga ko'ra, loyihada ular uchun tayinlangan tyutorlar haqida ijobjiy fikr bildirganlar. Ular o'rtasida o'z tyutorini 1 dan 10 gacha baholash tizimida o'tkazilgan so'rovnoma xulosalari bo'yicha ko'rsatkich 8 dan 10 gachani tashkil etgan. Ular tyutorlari loyiha davomida shunchaki mutaxassis yoki baholovchi emas balki "motivator" va "fasilitator" sifatida ta'sir ko'rsatganlari talabalarni ijobjiy natija ko'rsatishida muhim o'rin egallaganini bildirishdi. Talabalar tyutorlardan kutilgan va ular egallashi kerak bo'lgan asosiy malaka ko'nikmalari borasidagi fikrlarini anketada ifodalashdi. Bu bo'yicha natijalarni quyidagi jadvalda ko'rshimiz mumkin.

2-jadval

*Tyutorlardan talab etiladigan malakalar
(talabalar fikricha)*

N	Tyutor malakalari	Ahamiyatlilik darajasi (berilgan ovozlar bo'yicha)
1	Qo'llab-quvvatlovchi (har doim talabani qo'llab-quvvatlash va guruhni tinglashga tayyor bo'lish)	98
2	Motivator (guruhni dinamikasini oshirish va jonliligini ta'minlash, uni ruhlantirish)	42
3	Muammolarni hal qilishda yordamchi (qiyin vaziyatlarda ko'mak berish va guruhni birlikka chaqirish)	24
4	Monitoring qilish va loyiha rivojiga hissa qo'shuvchi (g'oyalalar berish, qaror qabul qilish va tayyorgarlik ishlarida ko'maklashish, guruhni ish yuzasidan fikrlar bilan ta'minlash)	36

So'rovnomada qatnashgan 200 talabalardan loyiha bo'yicha takliflari so'ralganda, ularga tayinlanadigan tyutorlar loyiha yo'nalishi bo'yicha to'liq bilim va malakaga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi kerakligini bildirishdi. Loyihada qatnashish va tyutor boshchiligidida ishlash ularni shaxsiy rivojlanishlari va bilimlarini ortirishlariga katta hissa qo'shganligidan mammun bo'ldilar hamda yuqorida tyutorda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan malakalarning dolzarblik darajasiga ovoz berdilar. Natijaga ko'ra, avvalo, tyutor talabalarni qo'llab-quvvatlovchi shaxs bo'lishi talab qilinadi. Keyingi o'rnlarda motivator, yo'naltiruvchi hamda muammolarni bartaraf etishda ko'makchi bo'lishi kerak.

XULOSA

Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lifni rivojlantirishda, oliy o'quv yurti va talaba o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashda tyutorning o'rni beqiyosdir. Bu borada tyutorlar bir qancha to'siq va qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Lekin ma'lum yaratilgan dasturlar, loyihaviy ta'limga asoslanib o'qitish va treninglar olib borish orqali bu murakkab jarayonlar yengillashtirilishi va ta'limga samaradorlikni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alves, A.C.; Moreira, F. & Sousa, R. (2007). O papel dos tutores na aprendizagem baseada em projectos: três anos de experiência na Escola de Engenharia da Universidade do Minho. In A. Barca; M. Peralbo; A. Porto; B. Duarte da Silva & L. Almeida (eds.), Libro de Actas do Con- gresso Internacional Galego-Portugués de Psico- Pedagogía
2. Ana Margarida Veiga Simão, Maria Assunção Flores, Sandra Fernandes, Célia Figueira - Tutoring in higher education: concepts and practices - sisifo / educational sciences journal · no7 · sep / dec 08
3. Bandura, A. Principles of behaviour modification. New York: Holt, Rinehart and Winston, Inc. Barnett, J. E.
4. Mentoring, boundaries, and multiple relationships: opportunities and challenges. Mentoring & Tutoring: Partnership in Learning, 16, 1, pp. 3-16.
5. Colvin, J. W. (2007). Peer tutoring and social dynamics in higher education. Mentoring & Tutoring: Partnership in Learning, 15, 2, pp. 165-181.
6. Dennison, S. (2000). A Win-Win Peer Mentoring and Tutoring Program: A Collaborative Model. The Journal of Primary Prevention, 20, 3, pp. 161-174. Dias, G. F. (2006).
7. Psicoterapia breve dinâmica com estudantes do ensino superior. In G. F. Dias (org.), Apoio Psicológico a Jovens do ensino superior. Métodos, técnicas e experiências. Porto: edições ASA, pp. 53-83.
8. Guedes, M. G.; Lourenço, J. M.; Filipe, A. I.; Almeida, L. & Moreira, M. A. (2007). Bolonha. Ensino e aprendizagem por projeto. Lisboa: Centro Atlântico.

PEDAGOGIKA

9. Terrian, J. L. & Leonard, D. (2007). A taxonomy of the characteristics of student peer mentors in higher education: findings from a literature review. *Mentoring & Tutoring: Partnership in Learning*, 15, 2, pp. 149-164.
10. Wallace, S. & Gravells, J. (2005). Professional Development. Lifelong Learning Sector: Mentoring. Exeter: Learning Matters.
11. O'rinoa N.M; Muxammadjonova M.I - "Ta'limda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyatli jihatlari" – Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 11-son_8-to'plam_Dekabr-2023
12. O'rinoa N,M; Muxammadjonova M.I – "Edge Hill universitetida tyutorlik tizimi xususiyatlari" – Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный Фокус» Декабря, 2023
13. <http://gep.ist.utl.pt/html/tutorado>
14. <http://www.ua.es/ice/tutorial>
15. http://www.ipcbpt/index.php?option=com_content&task=view&id=509&Itemid